ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

FUNKSIYALARNI GOLOMORF TIKLASH MASALASI.

Elomonova Dildora Alisher qizi
Fizika-matematika fakulteti
Matematika-ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi.

THE PROBLEM OF HOLOMORPHIC RECONSTRUCTION OF FUNCTIONS.

Elomonova Dildora Alisher kizi
Faculty of Physics and Mathematics
3rd year student of the Mathematics-Education department.

ПРОБЛЕМА ГОЛОМОРФНОЙ РЕКОНСТРУКЦИИ ФУНКЦИЙ.

Эломонова Дилдора Алишер Кизи
Физико-математический факультет
Студентка 3 курса математическо-педагогического отделения.

Annotatsiya: Biz bu maqolada Koshining integral formulasidan foydalanib sohaning qismida berilgan funksiya uchun golomorf tiklash masalasini ko'rib chiqdik va turli xil misollarga tadbiqini ko'rdik.

Kalit so'zlar: Koshining integral formulasi, golomorf, Xardi sinfi, Lebeg o'lchami, A.M.Kitmanov, T.Karleman, G.Krilov, M.Lavrentov, Grin funksiyasi, Drixli masalasi.

Annotation: In this article, we examine the problem of holomorphic reconstruction for a function given on a part of a domain using Cauchy's integral formula, and we explore its application to various examples.

Keywords: Cauchy's integral formula, holomorphic, Hardy class, Lebesgue measure, A.M. Kitmanov, T. Karleman, G. Krylov, M. Lavrentiev, Green's function, Dirichlet problem.

Аннотация: В данной статье рассмотрена проблема восстановления голоморфизма для заданной функции на части сферы с использованием интегральной формулы Коши и показано её применение к различным примерам.

Ключевые слова: интегральная формула Коши, голоморф, класс Харди, размерность Лебега, А.М. Китманов, Т. Карлеман, Г. Крылов, М. Лаврентов, функция Грина, проблема Дрикcли.

Kompleks sonlar tekisligi C_z da chegaralangan D sohani qaraylik . Uning chegarasi ∂D silliq (bo'lakli silliq) chiziqdan iborat. Bu yopiq egri chiziq musbat yo'nalishda olingan bo'lsin.

Aytaylik,

$$\overline{D} = D \cup \partial D$$

to'plamda $f(z)$ funksiya aniqlangan bo'lsin.

Teorema-1: Agar $f(z)$ funksiya D sohada golomorf bo'lib, $\overline{D}$ da uzluksiz bo'lsa, u holda $\forall z \in D$ nuqta uchun

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-12

$$f(z)=\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial D}\frac{f(t)}{t-z}dt \qquad 1)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Bu integral formula:

1) soha tanlamaydi;
2) yadrosi golomorf hisoblanadi.

Bunday integral formula $\overline{C}$ da boshqa yo'q. $1)$ integral formulaning ma'nosi shuki: $f(z)$ funksiya D soha chegarasi ∂D da uzluksiz berilgan bo'lsa , bu funksiyaning shu qiymatlari orqali soha ichida golomorf tiklash mumkinligini anglatadi.

Tabiiy savol tug'iladi $f(z)$ funksiya soha chegarasining Lebeg ma'nosida musbat o'lchamli qismida berilgan bo'lsa , uni ham soha ichida golomorf tiklash mumkinmi ?

Bu savolga birinchi bo'lib 1926 -yilda T.Karleman ijobiy javob topgan. Shuning uchun bunday formulalar Karleman formulalari deb yuritiladi. Undan keyin 1933 -yilda G.Krilov, keyinchalik M.Lavrentov , A.M.Kitmanov matematik sifatida xissa qo'shgan.

Savol: Chegaraning qismida berilgan funksiya uchun ham golomorf tiklash mumkinmi ?

Yechim: Goluzin-Krilov usuli.

Faraz qilaylik, D -kompleks tekislikning C^1 dagi bir bog'langan, cheklangan sohasi bo'lib, uning chegarasi ∂D silliq. $H^1(D)$ Xardi sinfiga mansub funksiyalar uchun Koshining integral formulasi $1)$ o'rinli:

$$f(z)=\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial D}\frac{f(t)}{t-z}dt \quad , z\in D.$$

Chegara ∂D da Lebeg ijobiy o'lchamiga ega bo'lgan o'lchab bo'ladigan M to'plamni ajratamiz. Vazifa shundan iboratki: $f(z)$ funksiyani sohada D ichida tiklash, lekin $1)$ dagidek uning butun chegarasi bo'ylab emas, faqat M to'plamdagi qiymatlaridan foydalanib , Karlemanning juda sodda, ammo nihoyatda samarali g'oyasidan foydalanamiz: ya'ni "so'ndiruvchi funksiya" quramiz, bu bizga $1)$ dagi integrallashni butun ∂D bo'ylab emas, balki faqat M bo'ylab olib borish imkonini beradi. Buning uchun yordamchi funksiya $\varphi(z)\in H^\infty(D)$ ni ikki shart bilan qurish kerak:

1. $|\varphi(t)|=1$ deyarli hamma joyda $\partial D\setminus M$ da;
2. $|\varphi(t)|>1$ barcha $z\in D$ uchun.

Buni amalga oshirish uchun mos Dirixle masalasini yechamiz. Masalan, quyidagi funksiyani olaylik:

$$u(x,y)=\frac{1}{2\pi}\int_{M}\frac{\partial G}{\partial n}ds \quad , \qquad 2)$$

bu yerda s - ∂D dagi yoy uzunligi, $G-D$ soha uchun Grin funksiyasi.

$2)$ formula D da garmonik va cheklangan bo'lgan $u(x,y)$ funksiyani beradi, u esa:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

$$u(x,y)=\begin{cases}1, M\\ 0, \partial D\setminus M\end{cases}$$ sohalarida.

Agar biz D soha bo'yicha garmonik o'lchovlardan foydalansak, va $v-u$ ga garmonik qo'shma funksiya bo'lsa, unda $\varphi(z)=\exp(u+iv)$ ushbu 1) va 2) shartlarni qanoatlantiradi.

Teorema- 2 . (Goluzin Krilov). Agar $f\in H^1(D)$ bo'lsa va $M\subseteq\partial D$ Lebeg bo'yicha ijobiy o'lchamga ega bo'lsa, unda har bir $z\in D$ uchun Karleman formulasi o'rinli:

$$f(z)=\lim_{m\to\infty}\frac{1}{2\pi i}\int_M f(t)\left[\frac{\varphi(t)}{\varphi(z)}\right]^m\frac{dt}{t-z} \qquad 3)$$

yuqoridagi yaqinlashuv D ning kompaktlari bo'yicha bir xilda amalga oshadi.

Isboti. Funksiya $f\varphi^m$ Xardi sinfi $H^1(D)$ ga tegishli, bu yerda m - ijobiy butun son, Koshi formulasi 1) ga ko'ra:

$$f(z)\varphi^m(z)=\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial D}\frac{f(t)\varphi^m(t)}{t-z}dt.$$

Buni ikkiga ajratamiz:

$$f(z)=\frac{1}{2\pi i}\int_M f(t)(\frac{\varphi(t)}{\varphi(z)})^m\frac{dt}{t-z}+\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial D\setminus M} f(t)(\frac{\varphi(t)}{\varphi(z)})^m\frac{dt}{t-z} \qquad 4)$$

Endi ko'rishimiz mumkinki 4) dagi ikkinchi integral $m\to\infty$ da har qanday kompakt $K\subset D$ uchun bir xilda 0 ga yaqinlashadi. Shu bilan teorema isbot bo'ldi.

Huddi shu tarzda, har qanday $\sigma>0$ uchun

$$f(z)\varphi^\sigma(z)=f(z)\exp\sigma\ln\varphi(z)$$

funksiyani olaylik shunda

$$f(z)=\lim_{\sigma\to\infty}\frac{1}{2\pi i}\int_M f(t)\left[\frac{\varphi(t)}{\varphi(z)}\right]^m\frac{dt}{t-z}, \qquad 5)$$

bu yerda logarifimning qaysi tarmog'ini olishimiz hech qanday rol o'ynamaydi, chunki ko'paytuvchi $\left[\frac{\varphi(t)}{\varphi(z)}\right]^\sigma$ o'zgarmaydi.

Natija. Teorema-1 shartlari bajarilganda:

$$f(z)=\frac{1}{2\pi i}\int_M\frac{f(t)dt}{t-z}+\frac{1}{2\pi i}\int_0^\infty d\sigma\int_M\frac{f(t)}{t-z}\left[\frac{\varphi(t)}{\varphi(z)}\right]^\sigma\ln\frac{\varphi(t)}{\varphi(z)}dt \qquad 6)$$

Isbot. Oson chunki:

$$\lim_{\sigma\to\infty}\psi(\sigma)-\psi(0)=\int_0^\infty(\frac{d}{d\sigma}\psi(\sigma))\,d\sigma, \qquad 7)$$

bu yerda chap tomondagi limitning mavjudligi- o'ng tomondagi o'lchovsiz integralning mavjudligiga teng kuchli shart.

Agar endi 1) va 6) formulalarni tenglashtirsak, $z\in D$ uchun:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

$$\int_{\partial D\setminus M}\frac{f(t)dt}{t-z}=\int_0^{\infty}d\sigma\int_M\frac{f(t)}{t-z}\left[\frac{\varphi(t)}{\varphi(z)}\right]^{\sigma}\ln\frac{\varphi(t)}{\varphi(z)}dt \qquad 8)$$

Ba'zan so'nuvchi funksiyani yanada sodda shaklda qurish mumkin. Ba'zan yoramchi funksiya $\varphi(z)$ ni oddiyroq yo'l bilan qurish mumkin va bu faqat bir bog'langan sohalarga xos bo'lmaydi. Quyidagi misollarda z_∞,ω_∞ 12) - konformal tasvirlash jarayonida cheksizga o'tayotgan nuqtalarni bildiradi.

Misol-1. Faraz qilaylik, D bir bog'langan soha, M esa uning chegarasidagi yoy. Shunday D' sohani qaraylikki:

$$D'\supseteq D$$
$$\partial D'\supseteq\partial D\setminus M$$
$$M\cap\partial D'=\varnothing$$

Bunda D' tashqi tomonini birlik doira $CU(0,1)$ ga konformal akslantiradigan funksiyani olamiz, masalan $\omega=g(z)$, va z_∞ - akslantirish orqali tashqi nuqta bo'lsin. Shunda

$$\varphi(z)=\exp g(z)$$

qaysiki $\operatorname{Re}\omega>0$ bo'lishi kerak- ya'ni z_∞ D tashqarisida yotishi uchun.

Misol-2. Sohaning chegarasi OV va OA to'g'ri chiziqlari hamda AB silliq egri chiziqdan iborat bo'lib, u AOB burchagi ichida joylashgan bo'lsin.

Faraz qilaylik,

$$\angle AOB=\pi\alpha,0<\alpha<2.$$

Endi AB egri chiziqni M sifatida olaylik. Shunda AOB burchagining bissektrisasida yotgan har bir z nuqta uchun Karleman formulasi:

$$f(z)=\lim_{m\to\infty}\frac{e^{-m}}{2\pi i}\int_M f(t)\exp\left[m\left(\frac{t-t_0}{z-t_0}\right)^{\frac{1}{\alpha}}\right]\frac{dt}{t-z} \qquad 9)$$

Bu yerda : z_0 - burchakning cho'qqisi, logarifimning qaysi tarmog'i olinishi ahamiyatga ega emas va

$$(t-z_0)^{\frac{1}{\alpha}}=\exp(\frac{1}{\alpha}\ln(t-z_0))$$

formulani isbotlash uchun shuni ko'rsatish kifoya

$$\psi_z(t)=\exp\left[m(\frac{t-z_0}{z-z_0})^{\frac{1}{\alpha}}\right]. \qquad 10)$$

Har bir fiksirlangan z uchun t bo'yicha $H^{\infty}(D)$ sinfiga mansub, agar $t\in\partial D\setminus M$ bo'lsa va z bissektrisada yotsa, u holda

$$|\psi_z(t)|=1$$

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

va yakunida

$$\psi_z(z) = e^m.$$

Misol – 3. Faraz qilaylik, soha D quyidagicha chegaralangan. Pastdan- haqiqiy o'qning bir bo'lagi bilan, yuqoridan- haqiqiy o'qdan yuqorida joylashgan silliq egri M bilan. Shunda har bir $z \in D$ uchun quyidagi formulalar o'rinli bo'ladi. (qarang $1)$ va $6)$ tengliklarga)

$$f(z) = \lim_{m\to\infty} \frac{1}{2\pi i} \int_M f(t) \exp\left[\frac{m(t-z)}{t-\bar{z}}\right] \frac{dt}{t-z}. \qquad 11)$$

Yoki teng qiymatli variant:

$$f(z) = \frac{1}{2\pi i} \int_M \frac{f(t)dt}{t-z} - \frac{1}{2\pi i} \int_0^\infty e^{i\omega} \left(\int_M \frac{f(t)\, e^{-i\omega\frac{t-z}{t-\bar{z}}} dt}{t-z}\right) d\omega \qquad 12)$$

Formulalar $11)$ va $12)$ statistik yadroviy fizikadagi dispersiya munosabatlarini o'rganishda qo'llangan.

Bu usullar yordamida golomorf funksiyani nafaqat bissektrisa bo'yicha, balki AOB burchagining butun ichida ham tiklash mumkin. Buning uchun burchakni biroz kichraytirib olish kifoya, shunda z burchakning ichida joylashadi. Shu sabab, Karleman formulasidan (9) M to'plam ham z ga bog'liq bo'ladi va so'ndiruvchi funksiyaning (10) ham z ga bog'liqligi tabiiy- bu yerda z faqat ko'paytuvchining maxrajida turgani uchun.

Xulosa sifatida $1)$ va $2)$ shartlarni qanoatlantiruvchi so'ndiruvchi funksiyani boshqa usullar bilan ham qurish mumkin; Goluzin- Krilov yondashuvi buni soddalashtiradi. Ular shunday v funksiya topadilarki, quyidagilar bajariladi:

$|\varphi(t)| = 1$ deyarli butun $\partial D \setminus M$ da,

$|\varphi(t)| > 1$ esa M da.

Bu ikki shartni bajaruvchi $\varphi(z)$ ni toppish uchun: Chegaraga mos keluvchi $v(t)$ funksiyani olamiz, so'ng garmonik funksiya qurib va yakunida

$$\varphi(z) = \exp(\mathrm{u}(\mathrm{z}) + \mathrm{iv}(\mathrm{z}))$$

shunda kerakli barcha shartlarga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1) Введение в комлексный анализ. Б.В.Шабат. Москва-1976.
2) Г.Худойберганов ва бошкалар - Комплекс анализ. Тошкент-1978.
3) И.П.Натансон. Теория функций вещественной переменной. Москва-1974.
4) Айзенберг Л. А. Формулы Карлемана в комплексном анализе.